



CHORVACHILIK SOHASIDA KICHIK BIZNESNI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY – IJTIMOIIY MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Sattorqulov Obidqul Turdiqulovich

Guliston Davlat Universiteti I.f.n., dotsent

Eshqulova Hilola Shoyimqul qizi

Guliston Davlat Universiteti

Tayanch doktoranti

xilolamhammadziyo@gmail.com

Kontakt telefon: +998942577056

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10638151>

Anotatsiya. Mamlakatda oziq – ovqat xavfsizligi haqida so‘z borganida chorvachilik tarmog‘i va uning ahamiyatini chetlab o‘tish imkonsizdir. Sababi insonlar iste‘mol ratsioni tarkigiga kiruvchi asosiy mahsulotlar aynan mana shu tarmoqda yetishtiriladi. Va bunda yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan mayda tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar va uy xo‘jaliklarining ulushi ancha yuqoridir. Shu sababdan chorvachilikda kichik biznesni samarali tashkil etish ham iste‘molchilar uchun ham ishlab chiqaruvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, kichik biznes, tadbirkorlik, sut, go‘sh, uy xo‘jaliklari, qoramolchilik.

Annotation. When it comes to food security in the country, it is impossible to ignore the livestock sector and its importance. The reason is that the main products included in the human consumption diet are grown in this sector. And in this, the share of small enterprises and households is much higher compared to large producers. For this reason, effective organization of small business in animal husbandry is important for both consumers and producers.

Key words: animal husbandry, small business, entrepreneurship, milk, meat, households, cattle breeding.

Chorvachilik qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, u sut, go‘sh va teri sanoatida hamda qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan organik o‘g‘itlarning asosiy manbai hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining eng murakkab tarmog‘i sut chorvachiligi o‘zining yuqori mehnat intensivligi tufayli asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashni doimiy joriy etishni taqozo etadi.

Sut chorvachiligi faoliyatining murakkabligi qishloq xo‘jaligining umumiy tarmoq xususiyatlari bilan bir qatorda tarmoqning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:



- qoramolchilik, yoki aynan sut chorvachiligi barcha chorvachilik tarmoqlari ichida eng uzun takror ishlab chiqarish tsikliga ega bo'lib, uni yetishtirish cho'chqachilik va parrandachilik sanoati mahsulotlariga nisbatan past rentabellik darajasi bilan tavsiflanadi va buning natijasida tarmoqning investisiyaviy jozibadorligini pasaytiradi;

- nasldor mol boshiga nasl unumdorligining pastligi qoramollar bosh sonini ko'paytirishni to'g'ri tashkil etish va sut chorvachiligidan foydalanishga alohida e'tibor berishni talab qiladi;

- sut chorvachiligining boshqa chorvachilik tarmoqlariga nisbatan o'ziga xosligi shundan iboratki, ushbu tarmoq ish unumdorligi va samaradorlik yuqori bo'lishi uchun ishlab chiqarish jarayonlarini kengroq mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni talab etadi;

- oziqlantirish jarayonining ham alohida e'tibor talab qilishi, masalan, shirali va qo'pol ozuqalarni saqlashda texnologik kechikish ularning sifati va ozuqaviy qiymatida sezilarli yo'qotishlarga olib keladi va pirovardida, oziqlantirish ratsioni muvozanati buzilganda ularning ortiqcha iste'mol qilinishiga olib keladi va hokazo [5].

Chorvachilik tarmog'ini va unda tadbirkorlik muhitini rivojlantirishning asosiy ahamiyati shundan iboratki, aynan chorvachilik tarmog'ida yetishtiriladigan mahsulotlar birlamchi oziq – ovqat mahsulotlarimiz qatorida bo'lib, inson organizmi uchun zarur bo'lgan oqsil va vitaminlarning boy manbai hisoblanadi. Va bunda biz urg'u berib asosiy diqqat e'tiborimizni qaratgan tadbirkorlik shakli bu kichik biznes bo'lishiga sabab esa, bugungi kunda mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarining 90 foizdan ortiq qismi uy xo'jaliklarida, kichik dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirilmog'dadir. Shu jihatdan ham bugun mamlakatimizda chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish, mayda tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab – quvvatlash uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratilib, ularning qonuniy asosi ham yaratilmog'dadir.

Chorvachilikni rivojlantirishga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlaridan biri bu 2021 yil 03 mart kuni qabul qilingan PQ – 5017-sonli "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab – quvvatlashga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risidagi qarorlaridir. Ushbu qaror ichki iste'mol bozorida go'sht, sut, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik ozuqa bazasini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha ilmiy



asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida qabul qilingandir [1].

Chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish uchun va tarmoq faoliyatida samaradorlikka erishish uchun tarmoq doirasida bir qancha islohotlarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqdir. Rivojlanishning ajralmas omillaridan biri bu – qoramollarning ozuqa ratsionini to'g'ri tashkil etish va uni ta'minlashdan iboratdir. Bunda chorva ozuqa bazasini mustahkamlash, shu bilan birga xomashyo va tayyor mahsulotlarni uzoq muddat saqlash uchun sharoit yaratish kerak bo'ladi. Chunki ozuqa mahsulotlarini yetishtirish mavsumiyliги va yetishtirilgan yem – xashakni ma'lum bir davr oralig'ida iste'mol qilinishi hisobga olinmasa, ozuqa sifatining buzilishi natijasida katta yo'qotishlarga duch kelish mumkin. Rus iqtisodchi olimi Safronov N.A.ning fikricha, tannarx tannarx me'yorlari va mehnat sarfi me'yorlariga rioya qilish hamda chorva mollarini saqlash sharoitlariga qo'yiladigan talablarga rioya etish mahsulotning umumiy xarajatlarini belgilaydi va mahsulot birligiga to'g'ri keladigan tannarxga va sut mahsuldorligiga bevosita ta'sir qiladi [2].

Sut ishlab chiqarish va uni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish katta iqtisodiy ahamiyatga egadir. Sababi u butun qishloq xo'jaligining iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, mahalliy chorvachilikda yuzaga kelgan vaziyat shuni ko'rsatadiki, keyingi rivojlanish strategiyasi va taktikasi jiddiy tuzatishlarni talab qiladi.


Sutchilik yo'nalishining yana bir qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan alohida va ustun jihati shundaki, uning doimiy xarakterga ega ekanligi, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari mavsumiy xarakterga ega; go'sht va jun olinishi bu jonivordan olinadigan pirovard mahsulot hisoblanadi. Sut esa sog'in sigirlardan doimiy tarzda olishimiz mumkin bo'lgan va egasi uchun doimiy daromad keltiradigan mahsulotdir. Shu jihatdan sut chorvachiligi qishloq xo'jaligi korxonalarining hozirgi moliyaviy holatini barqarorlashtirishga yordam beradi, bu esa tayyor mahsulotni sotish orqali doimiy yoki har kuni tushadigan mablag'lar hisobidandir.

Biz yuqorida chorvachilik tarmog'ida nega aynan kichik biznesni rivojlantirishimiz kerak degan savolga javob sifatida tarmoqda uy va dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlar salmog'i ancha yuqori ekanligini keltirib o'tdik. Quyida misol tariqaida 2022 yildagi ko'rsatkichlarni keltirib o'tamiz.

1-rasm



2022 yilda yetishtirilgan go'sht mahsulotining xo'jalik toifalari bo'yicha tarkibi (foizda)



Muallif ishlanmasi. Manba:[3].

Yuqoridagi rasmda 2022 yil davomida mamlakatimiz hududida yetishtirilgan umumiy go'sht miqdori xo'jaliklar kesimida keltirilgandir. Bunda ko'rinib turganidek, eng katta ulush 86,6 foiz bilan dehqon va uy xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqdadir. Agarda yetishtirilgan mahsulotlardan unumli foydalanib, chorvachilik mahsulotlarini yetishtiruvchilar va uni qayta ishlab chiqaruvchilar o'rtasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish ta'minlanmasa tarmoqda sezilarli uzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

Huddi shunday dehqon va uy xo'jaliklarining yuqori ulushini sutchilik tarmog'ida ham kuzatishimiz mumkin. Quyida mamlakat miqyosida sut ishlab chiqaruvchi korxonlarning foizdagi ulushi 2022 yil natijalariga ko'ra keltirib o'tilgandir.

2-rasm

2022 yilda yetishtirilgan sut mahsulotining xo'jalik toifalari bo'yicha tarkibi (foizda)



Muallif ishlanmasi. Manba:[3]



Guvohi bo'lganimizdek, sut yetishtirishda ham eng katta ulush dehqon va uy xo'jaliklariga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich 2022 yilda 93,4 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatda asosiy sut yetishtiruvchilar uy xo'jaliklari va an'anaviy fermer va dehqon xo'jaliklari ekanligini hisobga olgan holda bugun amalga oshirishimiz zarur bo'lgan vazifalardan biri bu sigirlar naslini yaxshilashdan iboratdir. Aynan shu orqali biz ham samradorlikka, ham sifatga hamda bugungi kunda asosiy muammolardan biri hisoblangan chorva ozuqa – bazasini mustahkamlashga erishishimiz mumkin. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, barcha sut zotlari orasida yillik sut mahsuldorligi bo'yicha yetakchi sigirlar Prim Golshteyn (yiliga 10795 kg), Golshteyn (9248 kg/yil), Shvetsiya Qizil (8730 kg/yil) va Daniya Qizil (8634 kg/yil) zotlari hisoblanadi [4]. Sirdaryo viloyati miqyosida oladigan bo'lsak uy xo'jaliklarida va an'anaviy fermer xo'jaliklarida mavjud mahalliy sigirlardan o'rtacha 7 – 9 litr sut olinadi. Bunda o'rtacha miqdorda yiliga bir bosh sigirdan 2920 litr hajmda sut sogib olinishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Sut chorvachiligining joriy holatini tahlil qilish uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi o'zaro bog'liq omillarni aniqlashga imkon berdi:

- hudud aholisining sut va sut mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlashning yuqori darajasiga erishish;
- aholining oziq-ovqatga bo'lgan xohish-istaklarini va ularning oziqlanish sifatini hamda alohida oziq-ovqat mahsulotlari va ularning guruhlariga bo'lgan samarali talabini belgilovchi daromadlar darajasini shakllantirish;
- qoramollarni xo'jalik toifalari va sut ishlab chiqaruvchilarning joylashuvi bo'yicha taqsimlashda ularning sut va sut mahsulotlarini yakuniy iste'mol qilish joylaridan uzoqligini hisobga olgan holda optimal nisbatlarini aniqlash;
- chorva mollarini ko'paytirish va boqish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, sut mollarining genetik salohiyatini oshirish;
- yem-xashak maydonlarining mahsuldorligini va ozuqa sifatini oshirish asosida ozuqa ta'minotini tashkil etishni takomillashtirish;
- kapital sig'imini va ularning o'zini oqlash muddatini, sut ishlab chiqarish tannarxini qisqartirishni ta'minlash, shuningdek, uning samaradorligi va sifatini oshirish;
- sutni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi mayda tovar ishlab chiqaruvchi korxonalarini tashkil etish va ularning ishlab chiqarish quvvatlaridan optimal darajada foydalanish;



- agrosanoat majmui sut sanoati subkompleksining samarali ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini shakllantirish;
- sut chorvachiligida epizootik holat va veterinariya yordami darajasini yaxshilash va boshqalar [5].

Ushbu maqolada biz sut chorvachiligini tashkil etish asoslariga, shuningdek, uning faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi o'ziga xos omillardan bir qanchasiga to'xtalib o'tdik. Yuqorida keltirib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish chorvachilik tarmog'i va unda kichik tadbirkorlikning joriy holatini yangi bir rivojlanish bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.03.2021 yildagi 5017-sonli "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab – quvvatlashga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi qarori
2. Сафронов Н.А. Экономика предприятий: учебник / Н.А. Сафронов [и др.]. – 2-е изд., перер. и доп. - М.: Экономистъ, 2004.- 618 с.
3. Stat.uz
4. Sog'in sigir zotlarining reytingi. - [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: http://www.dairynews.ru/news/rejting_molochnyh_porod_korov.html (kirish sanasi 19.11.2017).
5. Пименов Юрий Алексеевич, Организационно-экономические аспекты развития молочного скотоводства в регионе., диссертация, на соискание ученой степени кандидата экономических наук., Воронеж – 2018.
6. Namazov, Kh., & Khakimova, M. (2020). NEW METHOD OF USING LAND RESOURCES IN THE SUBTROPICAL ZONE OF SOUTH UZBEKISTAN. Innovative Technologylar , (4 (40)), 77-80.
7. Khakimova, M. Kh. (2021). USING THE "BRAINSTORMING" METHOD IN TEACHING SOIL SCIENCE AS A FACTOR OF ACHIEVEMENT OF EFFECTIVENESS. Bulletin of Science and Education , (6-3 (109)), 56-61.
8. Kiyamov, A., Khakimova, M., Ochilova, M., Razzakov, T., & Begimkulov, F. (2023). Roller-combing machine for preparation of combs. In E3S Web of Conferences (Vol. 390). EDP Sciences.
9. Juliev, M., Ng, W., Mondal, I., Begimkulov, D., Gafurova, L., Hakimova, M., ... & Saidova, M. (2023). Surface displacement detection using object-based image analysis, Tashkent region, Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 386). EDP Sciences.



10. Khakimova, M. X., & Bo'riyeva, S. Z. (2022). The Amount of Different Forms of Iron Contained in Soils Formed in Tertiary Reddish Deposits. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 6, 157-162.
11. Rakhimov, D., Juliev, M., Agzamova, I., Normatova, N., Ermatova, Y., Begimkulov, D., ... & Ergasheva, O. (2023). Application of hyperspectral and multispectral datasets for mineral mapping. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 386). EDP Sciences.

